

MUSIQA - MA'NAVIY OZUQA BERUVCHI MANBA.

Qudratova G. Orziqulova H. Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalari. Ilmiy rahbar; Hasanova N. Musiqiy ta'lim kafedrası. Katta o'qituvchi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa ta'limi inson hayotida tutgan o'rni hamda maktabgacha ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati ta'lim samaradorligini yanada oshirish choralarini kuchaytirish bo'yich keraki tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Musiqa, ta'lim, ta'lim usuli, san'at, madaniyat.

Respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgandemokratik islohotlar jamiyatimizni iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Mana shunday o'zgarishlar barcha jabhalarda bo'lgani singari ta'lim – tarbiya tizimida ham izchillik bilan amalga oshirilmoqdaki, bu ta'limni milliy asoslarda shakllantirish va takomillashtirishda o'z samaralarini berayotganligi quvonarli holdir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan ta'lim - tarbiya ishlarini milliy asoslarga tayangan holda shakllashtirishning o'ziga hos tamoyillari, mazmuni belgilab berildi. Shunga ko'ra asosiy e'tibor milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'sib kelayotgan yosh avlodlar tarbiyasida bundan keng foydalanishga qaratildi.

Har bir jamiyatning o'z madaniyati va ma'naviy omillari mavjud bo'lgani singari, halqimizning milly qadriyatlari yangi jmiyatni barpo etishda eng asosiy omillar hisoblanadi.

Shu jihatdan halqimizning o'tmishi, ma'naviy merosini o'rganish, milliy mafkurani anglash, jismoniy va ma'naviy yetuk yangi avlodni tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, milliy qadriyatimizni, an'alarimizni sevish va qadrlash tuyg'usini kamol toptirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardir. Zero, Ona – vatanni

sevish, uni ardoqlash, milliy qadriyatlarni hurmat qilish tuyg'usi bu insoniyat tarixi kabi qadimiy muqaddas tuyg'udir. Uning g'oyaviy, ba'diy estetik ifodasi xalqimizning milliy musiqiy an'alarida, xususan, xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom, dostonchilik qo'hiqlarida o'zining o'chmas muxrini qoldirgandir. Shu bois ham ulardan bugungi kunda musiqiy ta'lim tizimida imkon qadar keng foydalanish keng foydalanish ta'limning milliy mazmunini boyitish va mustahkamlashga hizmat qiladi.

Musiqqa san'ati hamma zamonlarda ham qudratli tarbiya vositasi bo'lib qolganligi va bugungi kunda ham uning tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlari tobora ortib borayotganligi ayni haqiqatdir. Yurtboshimiz I.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch » asarida ta'kidlaganlaridek, « Musiqaning hayotbahsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimida topish qiyin. Eng muhimi, bugungi kunda musiqqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda». Shunday ekan ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan, umumta'lim maktablarning boshlang'ich sinf larida o'quvchilarni milliy musiqqa merosimiz namunalarini bilan chuqur va har tomonlama tanishtirib borish zarur. Bu o'rinda bizningcha quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimizda hamma sohalarda islohatlar birin – ketin olib borilayotgan bir davrda ta'lim sohasidagi islohat jadal sur'atlarda bosqichma – bosqich davom etmoqda. Ayniqsa, ta'limning musiqqa yo'nalishi rivoji uchun e'tibor juda katta bo'ldiki, bu amalda o'z isbotini topdi desak yanglishmaymiz. Keyingi yillarda Mamlakatimiz shahar va tuman markazlarida kamida ikkitadan musiqqa va san'at maktablari qurilishi va eskilari ta'mirlanib zamonaviy holatga keltirilishi quvonarli holdir. Bundan tashqari bolalar musiqqa va san'at maktablari moddiy-texnika bazasini to'liq ta'minlash masalalari ijobiy hal etilayotgani maqtovga sazovordir.

Asosiy masala, shu maskanlarda faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassis kadrlarga ham e'tibor qaratilmoqdaki, o'quvchi yoshlarning ma'naviy tarbiyasi albatta ularga bog'liqdir

albatta. Maktabgacha ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa mashg'ulotlari DTS talablari asosida ta'lim berilmoqda va shu sohada mehnat qilayotgan ustoz murabbiylar, o'quvchi yoshlar tarbiyasi uchun jon kuydirmoqdalar.

Hammaga ma'lumki, musiqa inson tarbiyasida, insonning kamol topishida muhim omil hisoblanadi. Musiqa insonning ruhiyatiga ta'sir qilib uning harakterini keskin o'zgartirish mumkinki, bu kim qanaqa musiqa eshitishi bilan bog'liqdir.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan oziq – ovqat mahsulotlari yoki sa'noat mahsulotlari hamda chetdan import qilinadigan mahsulotlar hammasi nazorat ostiga olinganki, birinchi navbatda inson sog'ligi muhofazasi masalasi asosiy rol o'ynaydi. Bu masalada ko'pgina qonunlar qa'bul qilinib, qonun buzilgan taqdirda keskin choralar ko'riladi va bu narsa insonlar sog'ligi uchun katta foyda beradi.

Agar biz musiqani ma'naviy ozuqa beradigan mahsulot deb hisoblaydigan bo'lsak, hozirda uni hech kim nazorat qilmaydigan holat yuzaga kelib qoldi. Internet tarmog'i mayli, uni nazorat qilish qiyin, lekin o'zimizning FM radio kanallaridan yoki mahaliy televideniya tarmoqlaridan yangrayotgan, kishining asabiga tegadigan shovqinli musiqalar yoki tuturiqsiz musiqiy kliplar, umuman yoshlarni yo'ldan ozdiruvchi engil- elpi shunday musiqalarni kim nazorat qiladi. Bu savol ochiqligicha qolmoqda hozircha. Efirdan taralayotgan bunday musiqalarni bitta ikkita misol qilib ko'rsatish mumkin emas, sababi bunday musiqalar soni cheksiz bo'lib ketganki, bularning ichidan cho'michga ilinadigan asarni topish juda mushkul.

Bunday muammo markaziy televideniya yoshlar telekanalida ham uchrab turishi juda achinarli holdir. Balki bunday tashkilotlardagi badiiy kengashlar

yaxshi ishlamayotgandir, yoki yana bir boshqa sabablar bordir, bu bizga qorong'u.

Radio-televideniya va konsertlar uyushtiruvchi tashkilotlarda "Badiiy kengash" faoliyatini yaxshi yo'lga qo'yib shu sohada tezroq islohatlar o'tkazish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bu vazifani kechiktirish esa, yoshlarning tarbiyasiga, ularning ma'naviy kamolotiga putur etishiga sabab bo'ladi.

Muammoni echimining yana bir usuli, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish, ya'ni musiqa madaniyati ta'lim samaradorligini yanada oshirish choralarini kuchaytirish zarur. Sobiq ittifoq davridan qolgan ta'lim tizimidagi bir haftalik dars soatlari miqdori, ayniqsa musiqa madaniyati faniga ajratilgan soatlar o'zgarishsiz qolmoqdaki bu esa o'quvchilarning musiqa sohasida olishi kerak bo'lgan bo'lgan bilimlari uchun etarli emas. Bundan tashqari bu fan 7- sinfdan keyin o'qitilmaydi. Aslida esa aynan shu yoshda o'quvchi yoshlar endi balog'at yoshiga etib, musiqani yaxshi tushunadigan davr hisoblanadi va shunday paytda ular ko'p narsadan behabar qoladilar. Oldinlari shu soha olimlari buni "Mutatsiya" jarayoni bilan bog'laganlar, ya'ni o'quvchilar balog'at yoshiga etganda ulardagi bo'ladigan jismoniy o'zgarishlar natijasida ovoz paylarida ham o'zgarishlar vujudga kelib o'quvchilar qo'shiq kuylashda qiynaladilar deb ta'limdagi shu cheklashlar joriy qilingan edi. Lekin o'ylab qaralsa, musiqa madaniyati fani faqat qo'shiq kuylashdan iborat emasku. Musiqa madaniyati fanini o'quvchilarga o'rgatishda musiqa savodi, musiqa tarixi, bastakorlar xayoti va ijodi, folklor qo'shiqlar, musiqiy raqs harakatlari va musiqa tinglash kabi faoliyat turlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar milliy musiqa san'atimizni hamma qirralarini bilishi muhimdir. SHuning uchun ham ta'lim sohasini isloh qilishda, uning yanada samarali bo'lishda musiqa madaniyati yo'nalishiga ko'proq e'tibor berish zarurdir.

Umumta'lim maktablarida bu fanni 8-9- sinflarda ham o'qitish zarur va haftasiga kamida 2 soat vaqt ajratish kerak, shundagina yoshlarning ma'naviy tarbiyasida kutilgan natijalar vujudga keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak agarda biz yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitmoqchi bo'lsak, ularning tarbiyasida yuksak natijalarga erishmoqchi bo'lsak yuqorida aytilgan fikrlarga befarq bo'lmasligimiz kerak va bu sohada keskin o'zgarishlar qilishimiz zarur.

Shu o'rinda yoshlar o'rtasida ommaviy Estrada qo'shiqlarini tinglash, kuylash, taqlid qilishga haddan ziyod ruju qo'yish holatlari kuchayib borayotganligi ham musiqiy – estetik tarbiya borasidagi ishlar kutilgan natijalar bermayotganligini oqibati ekanligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Bunday holatga qarshi kurashish, «Ommaviy musiqa» ning buzg'unchi ta'sirlaridan o'sib kelayotgan yoshlarni himoya qilishni yagona yo'li, ta'lim tarbiya uchun ma'sul pedagogik – murabbiylarni bir maqsad yo'lida, kuchlarni birlashtirgan holda milliy musiqa madaniyatimiz durdonasi bo'lmish halq qo'shiqlari, mumtoz va maqom asarlari bilan chuqur tanishtirib, ularning ongiga, ma'naviyatiga singdirish yo'lida keng qamrovli ta'lim – tarbiya ishlarini amalga oshirib borishdan iboratdir.

Xulosa shundan iboratki, milliy musiqa merosining yosh va navqiron avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalashdagi o'rni tarbiya tizimida alohida o'ringa ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. I. A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” Tosh. Sharq nashriyoti.1999-yil
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori” T.Sharq nashr 1998-yil.
3. I.Karimov Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch.- Toshkent: O`zbekiston,2008.
3. S.Dolimov “Qobusnoma” Tosh.O`qituvchi nash,2006-yil.
4. J.To`lanov “Qadryatlar falsafasi” Tosh.O`zbekiston nash.1998-yil.
5. A.Odilov O`zbek milliy cholg`ularida ijrochilik tarixi.
6. H.Hamidov O`zbek an'anaviy qo`shiqchilik madaniyati tarixi.Toshkent. O`qituvchi nashr 1996 yil.
7. R.Tursunov Halq musiqa ijodiyoti va adabiyoti. Toshkent ma`rifat-madadkor nashr 2002 yil.

8. M.Abduraxmonov ma'naviy salohiyati Toshkent. O'zbek milliy Universiteti
2009 yil.

9. G.Sharipova "Musiq va uni o'qitish metodikasi" Toshkent. 2006yil.

10. R.G'.Qodirov. «Musiq psixologiyasi». Toshkent. Musiq nashriyoti. 2005 yil.